

SHARTNOMA № 398-2

(Joriy ta'mirlash)

«20» iyun 2022 yil

Toshkent.sh

Nizom asosida ish yurituvchi keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritilgan Mirobod tuman mablag'ida ta'lim bo'limi nomidan rahbar R.Aydinov bir tomondan va Ustav asosida ish yurituvchi keyingi o'rnlarda "Bosh pudratchi" deb yuritiladigan "INSHOOT XUROSON" MCHJ nomidan direktor F.NEKOV ikkinchi tomondan, birqalikda "Tomonlar" deb yuritiladi, mazkur shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI.

1.1. "Bosh pudratchi" mazkur shartnomaga shartlariga ko'ra "Buyurtmachi" balansida bo'lган 398-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida (keyingi o'rnlarda Obyekt deb yuritiladi) joriy ta'mirlash ishlarini tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida bajarib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Buyurtmachi" esa "Bosh pudratchi" ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lган sharotlarni; tegishli loyiha hujjatlari bilan ta'mirlash, bajarilgan joriy ta'mirlash ishlarini tegishli tartibda qabul qilib, to'lov ishlarini amalga oshirish majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

1.3. Mazkur shartnomaga bo'yicha Obyektda joriy ta'mirlash ishlarini bajarish ishlar, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab "**60**" kun muddat ichida amalga oshiriladi.

1.4. Ushbu shartnomaga muddati shartnomaga qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlanadi va 2022-yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI.

2.1. Mazkur shartnomaga bo'yicha "Bosh pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda **984 157 525 (to'qqiz yuz sakson to'rt million bir yuz ellik etti ming besh yuz yigirma besh) so'm**.

2.2. Qurilish bahosi va muddati mazkur shartnomada nazarda tutilishi mumkin bo'lган qurilish hajmining oshishi yoki kamayishini joriy ta'mirlash ishlari bajarilgunga qadar hukumat qaroriga ko'ra qiymatliklar o'zgartirilganligini fors-major holatlarini istisno etgan holda qat'iy sanaladi.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lган taqdirdagina shartnomaga bahosiga oid o'zgartirishlar shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

3. TOMONLARNING SHARTNOMA BO'YICHA MAJBURIYATLARI.

"Bosh pudratchi":

3.1. Barcha joriy ta'mirlash ishlarini mazkur shartnomaga ilova qilingan loyiha xujjalarda ko'rsatilgan hajmda va belgilangan muddatda o'zining kuchlarini yoki jalb qilingan uchinchi shaxslar yordamida bajarish hamda shartnomaga shartlariga ko'ra "Buyurtmachi"ga topshirish.

3.2. O'zi jalb qilgan uchinchi shaxslar tomonidan bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari sifatiga, muddati uchun javobgar bo'lish.

3.3. "Buyurtmachi"ni o'zi bilan uchinchi (Sub pudratchi) shaxslar o'rtasida tuzilayotgan shartnomaga haqida xabardor qilish.

3.4. "Buyurtmachi" yetkazib bergen va o'z kuchi mablag'i evaziga tashib keltirilgan qurilish materiallari va konstruktivalarini ularga zarar yetmagan holda saqlash.

3.5. Joriy ta'mirlash ishlari bajarilayotgan obyektda ekalogiya va tozalikka rioxasi etgan holda texnika va yong'in xavfsizligi tadbirlarini ta'mirlash.

3.6. O'zi tomonidan keltirilgan qurilish materiallarining loyihamda nazarda tutilgan talablarga (standart va x.k) javob berishini ta'mirlash.

"Buyurtmachi":

3.7. Kalendar ish rejasida belgilangan tartibda lekin shartnomaga imzolangan kundan e'tiboran 5 kun muddat ichida obyekt maydoni va loyiha hujjatlarini "Bosh pudratchi" ga topshirish.

3.8. Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatda bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun "Bosh pudratchi" ga haq to'lash.

3.9. "Bosh pudratchi" ning yozma talab, iltimos to'lov va e'tirozlari 5 kunlik muddat ichida o'r ganilib chiqib munosabat bildirish.

3.10. Kalendar ish rejasi asosida bajarilgan ishlarni tegishli tartibda qabul qilib olish.

3.11. Obyektda joriy ta'mirlash ishlari boshlangan kundan tomonlar o'rtasida ishlarni **moliyalashtirish va bajarish jadvali** ishlab chiqiladi va mazkur jadvallar tomonlar tarafidan imzolanib, korxona muhri bilan tasdiqlanadi hamda tomonlar moliyalashtirish va bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni tashkil etish majburiyatini oladilar.

4. TO'LOV VA HISOB-KITOBLAR

4.1. Ushbu shartnomaga buyicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martdagisi №-139-sonli Qaroriga asosan byudjet tashkilotlarini tovar (ish.xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'a znachilik bulinmasidan ro'y xatdan o'tkazilgandan so'ng bajariladigan ishlarni buyicha 30 kun oldindan shartnomaning umumiyligi qiyamatining **30% miqdorida** avans to'lovini **295 247 257.5 so'm (ikki yuz to'qson besh million ikki yuz qirq etti ming ikki yuz ellik etti so'm ellik tiyin)** amalga oshiriladi.

4.2. Bajarilgan ishlarni tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, obyekt buyurtmachi tomonidan qabul qilinganidan so'ng bir yo'la obyektning umumiyligi shartnomaviy qiyamatning **70% miqdoridagi** mablag'lar **688 910 267.5 som (olti yuz sakson sakkiz million to'qqiz yuz o'n ming ikki yuz oltmis etti so'm ellik tiyin)** moliyalashtiriladi.

4.3. Bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagunga qadar to'lov ishlarni kechiktirilishi mumkun.

5. ISHLARNI OLIB BORISH VA KAFOLAT MUDDATI.

5.1. "Buyurtmachi" qurilish obyekti o'z vakili "Texnik nazoratchi" tayinlaydi. U "Buyurtmachi" nomidan ishlarning hajmi va sifati, materiallari hamda boshqa ashyolarni shartnoma shartlari va loyiha hujjatlari talablariga mosligini tekshirib, bajarilgan ishlarni dalolatnomasini rasmiylashtiradi.

5.2. Qurilish maydonida bajarilgan joriy ta'mirlash ishlarni loyiha hujjatlari va qurilish qonun qoidalari talablariga javob berish uchun "Bosh pudratchi" ma'sul sanaladi.

5.3. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlarini qurilish materiallari, jihozlaridan foydalanish va ishlarni kafolatlik muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng 12 oy, obyektning kafolatli muddati 24 oy deb belgilanadi.

5.4. Sifatsiz bajarilgan ishlarni qayta tiklash uchun sarf qilingan qo'shimcha harajatlar shartnoma qiyamatidan tashqari bo'lib, aybdor hisobidan qoplanadi.

5.5. Sifatsiz va kamchilik bilan bajarilgan ish aniqlanganligi xususidagi dalolatnomasi bilan tomonlar kelisha olmasalar, ekspertiza tayinlanadi yoxud sud tartibi hal qilinadi.

6. QURILISHNI KONSERVATSIYALASH VA FORS-MAJOR HOLATI.

6.1. Qurilishni konservatsiyalashda tomonlar majburiyatlarining ijro muddatini bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat (fors-major) 1 oydan ortiq davom etadigan bo'lsa, qurilishni noma'lum muddatga to'xtatish (konservatsiyalash) uchun chora-tadbirlarni ko'rishni muhokama etadilar. Bir to'xtamga kelinmasa, 2 oy mobaynida tomonlar shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar.

6.2. Agarda tomonlar majburiyatlarini qisman yoki To'la ijro eta olmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy xarajatlar, boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, Ushbu holatlar shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir etadigan bo'lsa, tomonlar shartnoma bo'yicha majburiyatlarini qisman yoki to'la ijro etolmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

6.3. Qurilish obyekti to'laligicha konservatsiya qilish haqidagi qaror qilingan kunga qadar bajarilgan ishlarni haqi to'liq to'lanadi.

7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo‘ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

8. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

8.1. “Buyurtmachi” “Bosh pudratchi” ning aybi bilan qurilish grafik rejasi va loyiha shartlarida ko‘rsatilgan ishlarning bajarilishi bir oydan ortiq vaqtida to‘xtatilganda, ish sifati buzilganda, “Bosh pudratchi” yuridik shaxs sifati qonunda belgilangan tartiblarda aniqlanganda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishdan asossiz bosh torttirganda qonun xujjalariга muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

8.2. “Bosh pudratchi” “Buyurtmachi” tomonidan asossiz ravishda 1 oydan ortiq vaqt mobaynida qurilish ishlari to‘xtatilib qo‘yilganda, moliyalashtirish to‘xtatib quyish huquqiga egadir.

8.3. Shartnomani bekor qilish haqidagi talablar tomonlar bir-birini yozma ravishda xabardor qilingan holda 1 oylik muddat ichida ko‘rib chiqilib, hal qilinadi. Shartnomani asossiz bir tomonlama bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

8.4. Shartnoma bekor qilinganda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani to‘laydi.

9. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

9.1. “Buyurtmachi” “Bosh pudratchi”ga har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismini 0,4 % miqdorida peniya to‘laydi. Penya bajarilmagan majburiyatning 50 % idan oshmasligi lozim.

9.2. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz bosh tortganligi uchun “Buyurtmachi” “Bosh pudratchi”ga o‘zini tasdiqlashni rad etgan summaning 5 % miqdorida jarima to‘laydi.

9.3. “Bosh pudratchi” “Buyurtmachi”ga o‘z majburiyatlarini bajarmagan qismini 0,5 % miqdorida har bir kechiktirilgan kun uchun penya to‘laydi. Penya bajarilmagan majburiyatining 50 % idan oshmasligi lozim.

9.4. “Bosh pudratchi” tomonidan bajarilgan ishlar sifati shartnomada va loyihada belgilangan va boshqa qonun talablariga javob bermasa, sifatsiz bajarilgan ish hajmi qiymatining 10 % miqdorida “Buyurtmachi” ga jarima to‘laydi.

9.5. “Buyurtmachi”dan olingen foydalanimagan qurilish materiallari va boshqa ashyolar bir oylik muddat ichida qaytarilmasa, qaytarilmagan mulkning 10 % miqdorida jarima qo‘llanishiga sabab bo‘ladi.

9.6. Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo‘lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va’da qilish, ta’magirlilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo‘lish xattiharakatlari/harakatsizliklari sodir etmaydilar. - Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag‘batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg‘alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg‘araz ko‘rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag‘batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xattiharakatlari/harakatsizliklar bajarilishini ta’minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma’lum qiladilar.

9.7. Tomonlarda ushbu Shartnomaning 8.6-bandagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to‘g‘risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo‘lmaydigan dalillari mavjud bo‘lgan holda esa – amaldagi

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

10 ALOHIDA QOIDALAR.

10.1.“Bosh pudratchi” o'z kuchi mablag'i bilan olib kelgan qurilish materiallari va boshqa ashyolarning shartnoma va hamda loyiha talablariga mos kelishi haqida sertifikat texnik pasportlari bo'lislini ta'minlashi shart.

10.2. Qurilish materiallari va boshqa ashyolar “Bosh pudratchi” tomonidan markazlashtirilgan omborlar orqali “Bosh pudratchi” ning yozma xati (trebovaniye) orqali beriladi.

10.3. Joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan transport vositalari maxsus transportlar “Yordamchi pudratchi” ixtiyorida bo'lmasa, “Bosh pudratchi” tomonidan markazlashtirilgan usulda ta'minlanadi.

10.4 Qurilish materiallari va boshqa ashyolardan hamda transport vositalaridan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish shartnoma doirasida amalga oshiriladi.

10.5. Shartnoma loyiha hamda qonun talablariga javob bermaydigan material va uskunalardan foydalanish ta'qilanganadi.

11.SHARTNOMAGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH.

11.1. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish ikkala tomonni roziligiga asosan yozma ravishda amalga oshiriladi

12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

1.1. Shartnomani amal qilish muddati shartnoma ikki tomon o'rtaida imzolanib. G'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi va 31-dekabr 2022-yilgacha amal qiladi.

1.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada tuziladi.

1.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

XII. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

“BOSH PUDRATCHI”

ООО "INSHOOT XUROSON"

Адрес: ул. МКАД - 12

р/с: 20208000600761950001

Асака Банк Зарафшон филиал

МФО: 01021

ИНН: 304833029

Код НДС: 312020028800

ПИНФЛ: 32306812330010

Rahbar:

F.Nekov



“BUYURTMACH”

MIROBOD MTB

Manzili: Sarakol kochasi

24-уу тел\факе:71-291-6729

Х\р: 100022860262737091100251055

Bank nomi: ЦБ ЎКРБ

г.Ташкент MFO: 00014

INN: 305 144 655



R.Aydinov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT SHAHRI ADLIYA BOSHQARMASI
MIROBOD TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

100072, Mirobod tumani, A.Fitrat ko'chasi, 40a-uy,
tel.: (998 71) 299-87-95, el.pochta: mirobod.t-yurmarkaz@adliya.uz

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma.

2. **Loyihaning nomi:** "INSHOOT XUROSON" MCHJ va Mirobod tumani maktabgacha ta'lim bo'limi o'rtasida joriy ta'mirlash to'g'risida qurilish pudrat shartnomasi loyihasi (Mirobod tumanidagi 398-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini joriy ta'mirlash).

3. **Loyihaning qisqacha mazmuni:** "INSHOOT XUROSON" MCHJ va Mirobod tumani maktabgacha ta'lim bo'limi o'rtasida Mirobod tumanidagi 398-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini joriy ta'mirlash qurilish pudrat shartnomasi loyihasi. Davlat xaridlari maxsus axborot portalida 22110012100727-sonli lot bilan o'tkazilgan eng yaxshi takliflarni tanlash tartib taomili asosidagi davlat xaridi.

4. **Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:** Mirobod tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 17-iyunda yuridik xizmat ko'rsatish markaziga yuborilgan.

5. Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

6. Moliyaviy ekspertiza bundan mustasno.

Markaz bosh
yuriskonsulti



Sh.Abdusattorov

2022-yil 17-iyun



“TASDIQOLAYMAN”
Mirobod tumani MTB mudiri-
yari komissiyasi raisi
R.Z.Aydinov

Mirobod tumani maktabgacha ta’lim bo’limi esaar usidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarning extyojolar uchun ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid kilish bo’yicha “Xarid komissiyasi” ning yigilishi

Bayon № 00700 * 10/05

Toshkent shahri

2022 yil “ ” iyun

KUN TARTIBI:

Mirobod tumani maktabgacha ta’lim bo’limi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim muassasalarining extyojolari uchun ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid kilish bo’yicha “Xarid komissiyasi” ning 2022 yil 24 maydag’i 398-1-sonli bayoni asosida qabul qilingan qarorining ijrosi va ENG YAXSHI TAKLIFINI TANLASH g’olibini aniqlash to’grisida,

(R.Z.Aydinov, A.I.Kamalov, N.K.Turdieva, M.A.Gafurova, D.K.Solteva, ...)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Xarid komissiyasi raisi R.Aydinov so’zga chiqib, 06.06.2022 yilda 22110012100727-sonli LOT raqami bilan bo’lim tasarrufidagi 398-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotini joriy ta’mirlash uchun <https://etender.uzex.uz> tizimiga e’lon berilganligini, kiritilgan takliflar O’RQ-684-son qorun takabbari asosida ko’rib chiqilganligini va eng yaxshii taklifi tanlash g’olib bilan o’rnatalgan taribda shartnomaga rasmiy lashtirilishi lozimligini takidlab o’tidi.

Bo’lim bosh buygalteri A.Kamalov mazkur LOT bo’yicha 5 ta taklif kelib tushganligini va ular quyidagi tadbirkorlar tomonidan kiritilganligini ta’kidlab o’tidi.

1. «CHOSHTEPA QURUVCHI» MCHJ
 2. «INSHOOT XUROSON» MCHJ
 3. «GREAT PROGRESS» MCHJ
 4. «CHINDOVUL QURILISH» MCHJ
 5. «MAXSUS ENERGIYA STROY» MCHJ
- Komissiya a’zolai elektron tizimdag’i shaxsli kabneti orqali eng yaxshi taklifi tanlash ishtiroychilarining taqdirm etgan hujjat va ma’lumotlarni ko’rib chiqib, ball tizimida baholaganligini tasdiqladi.
- Xarid komissiyasi raisi R.Aydinov baholash natijalari bo’yicha 2022 yil 15 iyun sanasida elektron tizimda 100727-sonli bayonnomaga rasmiy lashtirililib muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joy lashtirilganligini va tanlash ishtiroychilari tomonidan tanlash o’tkazish natijalari bo’yicha e’tirozlar kelib tushmag’anligini ma’lum qildi.
- Yuqoridaqlardan kelib chiqib ishlar va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo’yicha Xarid komissiyasi

1. «INSHOOT XUROSON» MCHJ va maktabgacha ta’lim bo’limi o’rtasida 398-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotini joriy ta’mirlash bo’yicha eng yaxshi taklifi tanlash g’olib deb topilsin;
2. «INSHOOT XUROSON» MCHJ va maktabgacha ta’lim bo’limi o’rtasida 398-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotini joriy ta’mirlash bo’yicha shartnomaga rasmiy lashtirilib, g’aznachilik bo’limmasidan ro’yxatdan o’tkazilsin;

3. Mazkur bayonnomma ijrosini nazorat qilishni o’z zimmandanda qoldiraman.

KOMISSIYA RAISI:
Bo’lim mudiri

R.Z.Aydinov

KOMISSIYA A’ZOLARI:

Bosh hisobchi

A.I.Kamalov

Maxsus ta’mirlash-ekspluatatsiya
xizmati boshlig‘i

M.A.Gafurova

Iqtisodchi

34-sonli maktabgacha
ta’lim tashkiloti direktori

N.K.Turdieva

Davlat xaridlar va
shartnomalar bo’yicha mutaxassis

D.K.Solteva

QAOROR QILLADI: